



2018 yil iyul oyidagi holatga ko'ra

Au-Pair vizasini olish uchun kerakli hujjatlar haqida eslatma

Viza olish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etishingiz lozim:

*Har bir hujjat/ma'lumotnoma/tarjimaning **asli hamda DIN A4 formatdagi ikkitadan kseronusxasi** taqdim etilishi lozimligiga e'tibor berishingizni so'raymiz (asl nusxalar hujjatlaringiz ko'rib chiqilganidan keyin Sizga qaytariladi). Xorijiy tildagi hujjatlar vakolatga ega tarjimon tomonidan nemis tiliga o'girilgan bo'lishi shart.*

1. **Ikki nusxada, nemis tilida batapsil to'ldirilgan va arizachi tomonidan imzolangan viza so'rovnomasi** blanki hamda uch dona biometrik fotosurat. Blankni elchixonaning internetdagi www.taschkent.diplo.de web-sahifasidan olishingiz mumkin.
2. **Pasport**, 2-3 (shaxsiy ma'lumotlar) hamda O'zbekistonda ro'yxatga qo'yilganlik to'g'risidagi ma'lumotlar haqidagi sahifalaridan nusxasi bilan.
3. Sizni taklif qilayotgan oila bilan tuzilgan **Au-Pair shartnomasi** (shartnomma namunasini internetdagi www.arbeitsagentur.de sahifasidan olishingiz mumkin) va taklif qilayotgan oila ota-onasining pasport nusxalari.
4. **Tubbiy sug'urta mavjudligini tasdiqlovchi hujjat** (odatda, taklif qilayotgan oila tomonidan rasmiylashtirilgan tubbiy sug'urta shartnomasi; Germaniya hududiga kirgandan keyingi dastlabki 90 kun uchun mahalliy sug'urta kompaniyasi bilan tuzilgan tubbiy sug'urta polisi yordam tariqasida amal qiladi).
5. Au-Pair sifatida ishlamoqchi ekanligingizni **asoslovchi xat va shu vaqtgacha olgan ma'lumotlaringiz haqidagi hujjatlar** (masalan, diplomlar, ish joyidan berilgan ma'lumotnomalar), **akademik ta'til** yoki **o'z hisobingizdan olingen ta'til / mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi ma'lumotnomalar**
6. Chet ellikkarning Germaniya Federativ Respublikasi hududida istiqomat qilish shartlari haqidagi qonunning § 54, 2 abzatsi, 8 punkti hamda §53 ga muvofiq izoh va arizachining undagi shaxsiy imzosi
7. Agar Germanianing mahsulot sifatini kafolatlash va tamg'alash institutining sertifikatiga (RAL-Gütezeichen) ega bo'lgan va ushbu sertifikatning notarial tasdiqlangan nusxasini elchixonaga taqdim etgan agentlikning **vositachilik xizmatlaridan** foydalanilgan bo'lsa, shartnomma „pdf“ formatida yoki faks orqali kelgan nusxa ko'rinishida taqdim etilishi mumkin. Ushbu imkoniyat Au-Pair munosabati arizachi tomonidan shaxsan yoki internet orqali amalga oshirilgan holatlarda mavjud emas. Sertifikatga ega bo'lgan agentliklar haqidagi ma'lumotlarni www.guetegemeinschaft-aupair.de web-sahifasidan olishingiz mumkin.

Qo'shimcha eslatmalar

- taklif etayotgan oila bilan qarindosh bo'lgan shaxslarning Au-Pair vizasini olish uchun topshirgan hujjatlari ko'rib chiqilmaydi.
- taklif qilayotgan oilada nemis tili ona tili yoki kamida oila doirasida muntazam ishlataladigan til bo'lishi shart (qonunga muvofiq 2013 yil 1 avgustdan boshlab), ushbu oilaning voyaga etgan a'zolaridan biri Germanianing yoki Yevropa Ittifoqi/Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga

- a'zo biror bir davlatning fuqarosi bo'lishi lozim.
- ariza topshiruvchi 18 yoshdan kichik va 25 (qonunga muvofiq 2013 yil 1 avgustdan boshlab - 27) yoshdan katta bo'lmasligi lozim. Ushbu dastur asosida istiqomat qilish muddati kamida 6 oy, ko'pi bilan 1 yildir. Qoidaga ko'ra, Au-Pair sifatida faqat bir marotaba ishslash mumkin.
 - arizachining nemis tilidan bilim darajasi chet tili bo'yicha bilim darajasini baholash umumevropa tizimining A1 (Gyote institutining START DEUTSCH 1 darajasiga teng) darajasiga mos kelishi shart.
 - arizachi Au-Pair dasturi bo'yicha viza talab qilish huquqiga ega emas. Agar arizachining nemis tili bo'yicha bilimi tegishli talablarga javob bermasa yoki u safar maqsadini tasdiqlab bera olmasa hamda o'z vataniga qaytishi shubha uyg'otsa, elchixona viza arizasini rad etishi mumkin.

Agar arizachi avval boshqa maqsadlarda (90 kungacha berilgan Shengen vizasi bilan qilingan safarlar bunga kirmaydi) Germaniya hududida bo'lish uchun ruxsat olmagan bo'lsa va unga nisbatan davlat hududida bo'lishni yakunlashga sabab bo'lgan choralar ko'rilmagan bo'lsa, viza shartlarining bajarilishiga qarab elchixona viza so'rovnomasini bo'yicha mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Agar arizachiga avval Germaniya hududida bo'lish uchun ruxsat berilgan yoki unga nisbatan davlat hududida bo'lishni yakunlashga sabab bo'lgan choralar ko'rigan bo'lsa, uning viza so'rovnomasini **Germaniyadagi xorijiy fuqarolar ishlari bo'yicha mas'ul idoraga (Ausländerbehörde)** qaror qabul qilish uchun yuboriladi. Shu sababdan, Germaniyada yashash ko'zda tutilayotgan manzilni (ko'cha, pochta indeksi va joy nomi) so'rovnomada to'liq va aniq ko'rsatishingiz lozim.

Ariza tajribaga ko'ra **4-6 hafta** davomida ko'rib chiqiladi. Agar arizangiz borasida qaror qabul qilingan bo'lsa, elchixona Siz bilan bog'lanadi. **Viza berimasligi haqida qabul qilingan qaror faqat** pochta yoki elektron pochta orqali yuboriladi, shuningdek arizachi ushbu qarorni shaxsan o'zi olib ketishi ham mumkin. Arizani ko'rib chiqish muddati mobaynida ushbu arizaga tegishli ma'lumot arizachiga, hattoki, taklif qiluvchi oila yoki Au-Pair agentligiga ham berilmasligiga e'tibor qaratishingizni so'raymiz.

Germaniya hududiga kirganingizdan keyin, bu haqda xorijiy fuqarolar ishlari bo'yicha turar joyingizdagi mas'ul idoraga bevosita xabar qilishingiz lozim. Ushbu idora Germaniyada vaqtincha qolish bo'yicha yakunlovchi qarorni qabul qiladi.

Viza badali 75 yevroni tashkil etadi va to'lov hujjatlar topshirilayotganda faqat **o'zbek so'mida** (amaldagi kursga binoan) amalga oshiriladi. Kupyuralar 2001 yildan eski bo'lmasligi, yaxshi holatda, muhr va yozuvlarsiz bo'lishi shart.

Qabulga yozilish haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar va viza bo'limining qabul vaqtлari „**Viza olish uchun kerakli hujatlarni topshirish haqida eslatma**“da va „**Qabulga yozilish tizimi haqida eslatma**“da hamda Mehnat ishlari bo'yicha **Germaniya federal agenligining** eslatmasida ko'rsatilgan.